
Dezinfeksiya ishlari davom etmoqda

Qo'shtepa tumanida koronavirus infeksiyasi kirib kelishi va uning tarqalishini oldini olish borasidagi ishlar jadal suratda olib borilmoqda.

Xususan, tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi hamda Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik markazi tomonidan o'zaro hamkorlikda dezinfeksiya ishlari amalga oshirilmoqda.



Hozirda ushbu dezinfeksiya tadbirlari tuman hokimligi hududida, "Dehqon bozori" MCHJ hududi va atrofida, tuman markazidagi davlat tashkilotlari, oziq-ovqat do'konlari kirish qismi va atroflarida hamda markaziy ko'chalarda olib borilmoqda.



J. Jo'raboyev,

Qo'shtepa tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i o'rinbosari, katta leytenant.

2020-07-15 13:32:58